



**journal homepage:**  
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

## WAYS TO DEVELOP ECOTOURISM IN CHUMKOR MOUNTAIN AND SUB-MOUNTAIN PLAIN

**M. R. Godalov**

*Docent*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh, Uzbekistan*

*E-mail: [mirkomilgudalov78@gmail.com](mailto:mirkomilgudalov78@gmail.com)*

**Shakhista Kuvondikova**

*Student*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Chumkor Mountain, Ghoralash Pass, Aikor Mountains, tourist visits, eco-route, ski sports complex, natural and historical monuments.

**Abstract:** The nature of Chumkor Mountain and sub-mountain plains was studied and analyzed for the purpose of ecotourism development.

**Received:** 02.02.23

**Accepted:** 04.02.23

**Published:** 06.02.23

## CHUMQOR TOG‘ VA TOG‘ OLDI TEKISLIGIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

**M. R. G‘o‘dalov**

*Dotsent*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jizzax, O‘zbekiston*

*E-mail: [mirkomilgudalov78@gmail.com](mailto:mirkomilgudalov78@gmail.com)*

**Shohista Quvondiqova**

*Talaba*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jizzax, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Chumqor tog‘, G‘o‘ralash dovoni, Oyqor tog‘lari, turistlar tashrifi, ekomarshrut, chang‘i sport kompleks, tabiiy va tarixiy yodgorliklar.

**Annotatsiya:** Chumqor tog‘ va tog‘ oldi tekisliklarining tabiatli ekoturizmni rivojlantirish maqsadi o‘rganildi va tahlil qilindi.

## ПУТИ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА В ЧУМКОРСКОЙ ГОРНО-ПРЕДГОРНОЙ РАВНИНЕ

**M. P. Годалов**

*Доцент*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак, Узбекистан*

*E-mail: [mirkomilgudalov78@gmail.com](mailto:mirkomilgudalov78@gmail.com)*

**Шахиста Кувондикова**

*Студент*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Гора Чумкор, перевал Горалаш, горы Айкор, туристические маршруты, экомаршрут, лыжно-спортивный комплекс, памятники природы и истории.

**Аннотация:** С целью развития экотуризма изучена и проанализирована природа Чумкорского хребта и предгорных равнин.

### KIRISH

Chumqor tog‘ G‘o‘ralash dovonidan boshlanib, uzunligi 70 km ni tashkil qiladi. Chumqortog‘ g‘arbdan sharqqa qarab cho‘zilgan bo‘lib, Zarafshon va Sangzor daryo havzalari o‘rtasida suvayrig‘ich vazifasini bajaradi. Chumqortog‘ning suvayrig‘ich qismi, sharqda G‘o‘ralash daryosining Langarsoy va Urmitan (Zarafshon daryosining havzasasi) daryolarini ajratib turuvchi G‘o‘ralash dovonidan boshlanadi. G‘o‘ralash dovondan boshlab shimoli-g‘arb tomon yo‘nalib, Urmitan (3102 m) dovoni, Bozorxonim cho‘qqisi (3405 m), Qamchiq (2868 m) dovoni kuzatiladi. Nomsiz dovonda (3210 m) Chumqortog‘ janubga qarab buriladi. Lattaband (1995 m) dovonidan janubi-g‘arbgaga qarab pastlashib ketadi. Eng g‘arbiy chekkasida Formontepa va Qurama qishloqlari atrofida uning balandligi 900 m ga pastlashadi. Chumqortog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘riga nisbatan tik va qisqadir.

### ASOSIY QISM

Molguzar tizmasi Chumqortog‘dan shimolga 35-40<sup>0</sup> gradus burchak bilan ajralib ketib, Sangzor daryo havzasini shimol va shimoli-sharqdan chegaralab turadi. Bu tog‘ tizmasini Chumqortog‘dan o‘zining shimoli-g‘arb tomon yo‘nalishi va uning gipsometrik balandligi (sharqda 2600 m dan, g‘arbda 900 m gacha) katta emasligi bilan ajralib turadi. Tizmaning janubiy yonbag‘ri tik va ko‘pincha qoyali. Shimoliy yonbag‘ri janubiga nisbatan ancha uzun, ayniqsa o‘rtaligida qismida yotiqlikdir.

Chumqortog‘ning eng yuqori qismlarini mahalliy aholi Oyqor tog‘lari deb ataydi. Chumqortog‘ning Oyqordan ham balandroq bo‘lgan cho‘qqilari ko‘p bo‘lsada, ular ichida Oyqor tabiatining go‘zalligi bilan ajralib turadi. Oyqorning gumbazsimon cho‘qqisi so‘ngan vulqon

konusini eslatadi va uzoqdan qaragan kishida, ajoyib taassurot qoldiradi. Cho'qqi ufq ustida o'zining tik yonbag'irlari bilan muallaq turgandek ko'rindi.

Oyqor cho'qqisi yozning faqat ikki oyidagina qor qoplamidan holi bo'ladi. Bu davrda yonbag'irlarni qalin o't va gullar gilami qoplaydi. Boshqa vaqlarda, hatto vodiyya saraton jaziramasi boshlangan davrda ham uning cho'qqisida qor bo'ladi. Oyli tunlarda qor qoplami o'zidan sehrli oq nur taratgandek bo'ladi. Shimolga qaragan baland tik yonbag'ir o'zgacha, yorqin oy nuriga cho'madi. Oyqorning dengiz sathidan 3200 m balandda bo'lgan ulkan gavdasi, bunday tunlarda oy nurida billurdek yaltiraydi. Ayniqsa, to'lin oy kechalarida ajoyib va takrorlanmas manzara hosil qiladi. Bu manzarani tomosha qilib, Oyqor nomi bejiz berilmaganligiga ishonch hosil qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Oyqor tog'lari to'g'risida ko'plab afsona, hikoya va hatto qo'shiqlar ham to'qilgan.

Oyqor tog'lari hozirgi zamon yozuvchilari o'rtasida ham mashhur bo'lib, Mamadiyor Sherbekov va Nurali Qobul kabi yozuvchilar asarlarida ham to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, Oyqor haqida IX-XII asrda yashab, ijod qilgan arab sayyoohlari asarlarida va Zahreddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlarida ham tilga olib o'tilgan. Oyqor tog'larining go'zalligini o'z ko'zi bilan ko'rgan sa'natkor, u haqda ijod qilmaslik mumkin emasligini tushunadi.

Hozirgi vaqtida Oyqor tog'lari, tabiat qo'ynida dam oluvchilar uchun ajoyib tog' maskanlardan biri bo'lib, bu yerni tabiatini tomosha qilish va dam olish uchun, nafaqat Jizzax viloyatidan balki O'zbekistonning turli burchaklaridan sayyoohlар tashrif buyurishmoqda. Bu hududda yil davomida dam olishni tashkil qilsa bo'ladi. Agar tog' oldi hududi yaxshi o'rganilib, yo'llar solinsa, tabiiy va tarixiy yodgorliklar ta'mirlansa, sayyoohlар uchun ekomarshrut yo'nalishlari tuzib chiqilsa, turistlar tashrifi keskin ravishda ortar edi.

Kelajakda Oyqor tog'larida qishki chang'i sport kompleksini tashkil qilish har tomonlama foydali bo'lar edi. Sababi, qorning uzoq vaqt saqlanib turishi, chang'i sport kompleksdan deyarli 5 oy, ya'ni noyabrdan mart oyigacha foydalanish imkoniyatlari bor. Bu loyihalar amalga oshirilsa qilingan xarajatlarni to'liq qoplashi va qolaversa, yaxshigina foyda ko'rish imkoniyatini ham beradi.

Chumqortog'lari va Sangzor havzasi turistik hududiga kelgan sayyoohlар uchun bir necha turdagи ekomarshrut yo'nalishlarini taklif etish lozim. Jumladan, piyoda yoki otlarda Oqtoshsoy, Kattasoy va Ko'ktepa dovoniga (2600 m) hamda Baxmalsoydan boshlanib to G'o'ralash dovonigacha avtomobilarda boriladigan ekomarshrut yo'nalishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Jizzax viloyatining janubiy turistik hudud hisoblangan Chimqortog' va Sangzor havzasi hududida o'tgan asrning 60 yillaridan boshlab bir qancha dam olish maskanlari va bolalar oromgoohlari qurilgan. Bularga Ko'kjar qishlog'idagi Navoiy tog'-metallurgiya kombinati

tomonidan qurilgan “Tog‘ havosi”, “Bolalar” oromgohi, shuningdek, Uzunbuloq qishloqidagi “Do‘lana”, Mo‘g‘ol qishlog‘idagi “Mingchinor”, Baxmal xo‘jaligidagi “Terakli” bolalar oromgochlari misol bo‘ladi (Rauf Rahim, 2009 y). Eng achinarli tomoni shundaki, bu oromgochlarning biror-bittasi ham hozirgi kunda faoliyat yuritmayapti.

## XULOSA

Yozuvchi Rauf Rahim iborasi bilan aytulganda “butun Baxmal hududi oromgohlardan iborat” deyiladi. Haqiqatdan ham, tog‘ havosi va ekzotikaga boy tabiatni bu yerga keluvchi sayyoohlarni qiziqishlariga doimiy ravishda sabab bo‘lgan.

Kelgusida bu hududda bolalar oromgohi faoliyatini qayta tiklash va qolaversa yangi oromgohlar tashkil qilish lozimdir. Bu yerda turli kasallikkarni davolashga ixtisoslashgan sanatoriyalar va dam olishga ixtisoslashgan sanatoriyalarni barpo etish har tomonlama foydali bo‘lar edi. Shuningdek, qisqa mudatda dam oluvchilar uchun kempinglar va uy mehmonxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Darslik. Samarqand: SamDU, 2020 y
2. Og‘a Burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgochlari. – T.: “Fan”, 2008 y.
3. Hakimov Q, G‘o‘dalov M. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax: “Sangzor”, 2004
4. G‘o‘dalov M. R. Jizzax viloyati tabiatni va uni muhofaza qilish. - T.: “Fan va texnologiya”, 2014 y
5. G‘o‘dalov M.R., Normatova M. Jizzax viloyatining turistik hududlari. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy geografiya: yutuqlar, muammolar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materallari. Toshkent: 2013 y.
6. G‘o‘dalov M.R., Hazratqulov H. Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari. Geografiyaning mintaqaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materallari. Jizzax 2017 y.
7. G‘o‘dalov M.R. Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirishda klaster usulini tadbiq etish yo‘llari. Tafakkur ziyosi // Ilmiy-uslubiy jurnal.-2018, №2. 93-95 b.
8. G‘o‘dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar.

Guliston 2021